



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI ISLOHOTLAR

Loqayev Abdulatif Babasher o‘g‘li

talaba

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

e-mail: loqayev@bk.ru

Annotatsiya: Hozirgi kunda iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalasiga har doimgidan ham ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Mazkur maqolada muallif O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlar, sohada mavjud muammolarga bir muncha to‘xtalib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, ochlik indeksi, agroklastar, ekstensiv, intensiv, kosmik texnologiyalar, suv xo‘jaligi.

AGRICULTURAL REFORMS IN UZBEKISTAN

Loqayev Abdulatif

Annotation: Nowadays, attention is paid to the modernization and diversification of our economy sectors, including agriculture and food production, as well as financial support for farmers, clusters and cooperatives more than ever. In this article, the author dwells on the ongoing reforms in agriculture in Uzbekistan, with a special focus on the existing problems in the field.

Keywords: Agriculture, Index of hunger, agro cluster, extensive, intensive, space technology, water services.

O‘zbekiston 2020-yilda Global ochlik indeksi (GHI) bo‘yicha 100 dan ortiq mamlakat orasida 30-o‘rinni egallab, 2017-yilga nisbatan 20 pog‘ona ko‘tarildi (o‘shanda 50-o‘rinni egallagan edi). 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining 21 ta qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 ta farmoni va 149 ta qarori, Hukumatning 185 ta qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va sanoatdagi islohatlar to‘g‘risidagi qarorlari qabul qilindi. Xususan, bu yil qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining 5 ta qonuni, Prezidentning 12 ta farmoni va 30 dan ortiq qarori hamda hukumatning ko‘plab qarorlari ayni shu yo‘nalishga qaratilgandir. 2019-yilda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qarorlari bilan (2020-yil PQ-4633-son va PQ-4634-son) davlat buyurtmasi asosida paxta xomashyosi, g‘alla ishlab chiqarish amaliyoti va ular uchun davlat tomonidan xarid narxlarini belgilash bekor qilindi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga bozor mexanizmlari, jumladan, agroklaster tizimining joriy etilayotgani qisqa fursatda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 97 ta paxta-to‘qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g‘allachilik, 35 ta sholichilik va 7 ta dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar va 11 ta paxta-to‘qimachilik kooperatsiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, qoramolchilik yo‘nalishida 34 ta, parrandachilik bo‘yicha 10 ta, baliqchilik tarmog‘ida 36 ta, asalarichilik yo‘nalishida 15 ta fermer xo‘jaligida klaster usulida mahsulot yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, keyingi ikki yilda respublikada pillachilik sohasida 62 ta klaster ishga tushirilib, ular tomonidan 600 milliard so‘mga yaqin mahsulot ishlab chiqarildi. [4]

2020-yilda respublika bo‘yicha 11 mingga yaqin, ya‘ni 90 foiz fermer xo‘jaliklari ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarga aylantirildi. Buning natijasida qariyb 37 ming aholi ish bilan ta‘minlandi. Davlat tomonidan shaxsiy tomorqa egalari artezian quduqlari qazish hamda ixcham issiqxonalar qurish uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratilayotgani ham aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yana bir o‘ziga xos yo‘nalishiga aylandi. Ushbu ezgu maqsadlar uchun O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Jamg‘armadan 65,5 milliard so‘m, tomorqa xizmati korxonalari, qishloq xo‘jaligi kooperativlari va fermerlarni qo‘llab-quvvatlash uchun esa 110 milliard so‘mga yaqin mablag‘ yo‘naltirildi. Bundan tashqari, “Har bir yoshga – bir gektar” dasturi doirasida g‘alladan bo‘shagan maydonlarning 84 ming gektari 266 mingta kam ta‘minlangan oilalar va ishsiz yoshlarga berilib, ularga fermer xo‘jaliklari va tomorqa xizmati korxonalari birlashtirildi. Ushbu dastur natijasida 1 million tonnadan ziyod mahsulot yetishtirildi. 2018-yilda qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston YAIMning 32 foizini tashkil qilib, mehnatga layoqatli aholining 27 foizini ish bilan ta‘minlaydi. Shunday ekan qishloq xo‘jaligi, samarali davlat siyosati sharoitida mamlakat iqtisodiy o‘rinishining asosiy omillaridan biri bo‘lishi mumkin. Jahon bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasida qishloq xo‘jalik muammolari bo‘yicha yetakchi iqtisodchi Sergiy Zorya O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasidagi muammolarni tavsiflab quyidagi takliflarni ilgari surdi.

1. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni muvozanatlash lozim. Ma’lumki, 2018 yilda O‘zbekistonning 70 foiz ekin maydonlari paxta va bug‘doy yetishtirish uchun ishlatilgan. Oxirgi bir necha yillarda ba’zi yer maydonlari paxta va bug‘doy yetishtirishdan chiqarildi. Lekin qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda unumdorlikni oshirish uchun hozirgi kunda mazkur ikki mahsulot ekish uchun ishlatilayotgan qo‘shimcha maydonlardan keyinchalik boshqa yanada foydali ekinlarga, xususan, meva va sabzavotlar ekish uchun foydalanish lozim. Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekiston paxta va bug‘doy maydonlarini qisqartirish, masalan ularni 50 foizgacha kamaytirish qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 51 foizga, qishloq xo‘jaligida bandlikning 16 foizga, suv tejamkorligining 11 foizga oshishiga olib keladi.

2. 2018-yilda O‘zbekiston yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti daromadining faqatgina 0,02 foizini qishloq xo‘jaligi sohasidagi izlanishlarga sarflanadi. Shu bilan birga, hozirgi kunda mahalliy fermerlar uchun axborot-konsultativ xizmatlar mutlaqo mavjud emas. Taqqoslash uchun, muvaffaqiyatli qishloq xo‘jaligiga ega bo‘lgan o‘rta daromadli mamlakatlar qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 1 foizini qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadqiqotlarga uchun sarflaydi, ko‘p daromadli mamlakatlar esa o‘rtacha 2,5 foiz sarflaydi.

3. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun eksport imkoniyatlaridan maksimal foydalanish kerak. 2018-yilda O‘zbekiston agro oziq-ovqat mahsulotlari eksport qiymati bor-yo‘g‘i 1,3 mlrd dollarni yoki har gektar mahsuldor yerga nisbatan 330 dollarni tashkil qildi. Taqqoslash uchun, o‘sha yili Vyetnam 40 mlrd dollarlik qishloq xo‘jalik mahsulotini eksport qilgan. Bu davlatning eksportdan olgan foydasi har bir gektar mahsuldor yerga 6100 dollarni tashkil qiladi.

4. Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish uchun budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish kerak. 2018-yilda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi uchun davlat xarajatlari YAIMga nisbatan 1,8 foizni tashkil etdi (2016 va 2017 yillarda YAIMning 2 foizini tashkil etgan edi).

5. Fermer xo‘jaliklarining yerga egalik qilish huquqlarini himoya qilish kerak. Dehqon xo‘jaliklari (kichik dehqonlar) ning yerga egalik qilish huquqlari qonuniy himoyalangan. Bu moddiy-texnik resurslarga ko‘proq pul to‘lashlari, o‘zlarining kichik yer maydonlarida ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash qiyin bo‘lsa ham, nima sababdan kichik dehqon xo‘jaliklarida yirik fermer xo‘jaliklaridagiga nisbatan hosildorlik o‘rtachadan yuqori ekanligining asosiy sabablaridan biridir. [5]

Xulosa: E'tibor qaratadigan tarmoqlarimizga suv tejoychi texnologiyalarni, Hududlarni ixtisoslashtirishni, Sug'orish va melioratsiyani, Kosmik monitoring vazifalari tarmoqlar va agrosanoatmajmuasi yo'nalishlarini, Raqamlashtirish, Agrologistik infratuzilma, Standartlashtirish, Qishloq xo'jaligidag ilm-fan va ta'lim, Eksport diversifikatsiyasi shu tarmoqlarni kelgusida rivojlantirsak Qishloq xo'jaligimiz yanada yaxshi natejaga yerishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 17-apreldagi PF-5708-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 17-apreldagi PQ-4292-son qarori.

3. Soliyev A. O'zbekiston Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi . Toshkent. "Universitet", 2014. 404 b.

4. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-qishloq-xo'jaligi-xodimlariga>

5. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/08/agriculture/#>